“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



O‘zbekiston Respublikasi referendumi: huquqiy asoslari va takomillashtirish istiqbollari

Zafar Farmanov,
Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: zofa_yurist@mail.ru

Аннотация. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi referendumining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari,“O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonunning amaldagi tahriri va 2023-yil 30-apreldagi konstitutsiyaviy referendum tajribasi tahlil qilingan. Milliy qonunchilik Shveysariya, Italiya, Fransiya va Qozog‘iston tajribasi hamda Venetsiya komissiyasining Referendumlar bo‘yicha yaxshi amaliyot kodeksi (2022) bilan qiyoslangan. Fuqarolar tashabbusi uchun belgilangan imzo talabining yuqoriligi, elektron imzo to‘plash mexanizmining mavjud emasligi va referendum protseduralarining Saylov kodeksidan ajralib qolgani asosiy muammolar sifatida ko‘rsatilgan hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. referendum, bevosita demokratiya, xalq hokimiyati, fuqarolar tashabbusi, ishtirok kvorumi, Markaziy saylov komissiyasi, Venetsiya komissiyasi

Аннотация. В статье анализируются конституционно-правовые основы референдума Республики Узбекистан, действующая редакция Закона «О референдуме Республики Узбекистан» и опыт конституционного референдума 30 апреля 2023 года. Национальное законодательство сопоставлено с опытом Швейцарии, Италии, Франции и Казахстана, а также с Кодексом надлежащей практики в области референдумов Венецианской комиссии (2022). Выявлены проблемы высокого порога подписей для гражданской инициативы, отсутствия электронного сбора подписей и обособленности процедур референдума от Избирательного кодекса; предложены пути их решения.

Ключевые слова. референдум, непосредственная демократия, народовластие, гражданская инициатива, кворум явки, Центральная избирательная комиссия, Венецианская комиссия

Annotation. The article examines the constitutional and legal framework of the referendum in the Republic of Uzbekistan, the current version of the Law “On the Referendum of the Republic of Uzbekistan” and the experience of

the constitutional referendum of 30 April 2023. National legislation is compared with the practice of Switzerland, Italy, France and Kazakhstan and with the Venice Commission’s Revised Code of Good Practice on Referendums (2022). The study identifies the high signature threshold for citizens’ initiatives, the absence of electronic signature collection and the separation of referendum procedures from the Electoral Code as key problems, and proposes solutions.

Keywords. referendum, direct democracy, popular sovereignty, citizens’ initiative, turnout quorum, Central Election Commission, Venice Commission

Kirish. Referendum xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirishning eng yuqori shakli boʻlib, unda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari fuqarolarning umumxalq ovoz berishi orqali hal etiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir”, deb belgilangan boʻlsa, 9-moddasida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etilishi va umumxalq ovoziga – referendumga qoʻyilishi mustahkamlangan. Shu tariqa referendum xalq suvereniteti tamoyilining amaliy ifodasi sifatida konstitutsiyaviy tuzumning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mavzuning dolzarbligi, **birinchidan,** 2023-yil 30-aprelda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri aynan referendum yoʻli bilan qabul qilingani bilan izohlanadi. Ushbu jarayon referendum institutining mamlakat konstitutsiyaviy rivojlanishidagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etdi.

Ikkinchidan, “Oʻzbekiston Respublikasining referendumi toʻgʻrisida”gi qonun 1991-yilda qabul qilingan va asosan 2001-yil tahririda amal qilmoqda; unga 2019, 2022, 2023 va 2026-yillarda kiritilgan oʻzgartirishlar nuqtali xarakterga ega boʻlib, tizimli yangilanish hali amalga oshirilmagan.

Uchinchidan, mustaqillik yillarida oʻtkazilgan barcha umumxalq referendumlari davlat organlari tashabbusi bilan oʻtkazilgan, fuqarolar tashabbusi mexanizmi esa amalda biror marta qoʻllanmagan. Bu holat ushbu mexanizmning samaradorligini ilmiy jihatdan baholashni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi Oʻzbekiston Respublikasi referendumi toʻgʻrisidagi qonunchilikni xorijiy tajriba va xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida uni takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Referendum instituti xorijiy huquq va siyosatshunoslik fanida keng tadqiq etilgan. D. Batler va O. Renni tahriri ostidagi jamoaviy monografiyada referendumlardan foydalanishning global tendensiyalari tahlil qilinib, bevosita demokratiyaning vakillik demokratiyasini toʻldiruvchi vosita sifatidagi oʻrni asoslangan. M. Setyalya referendumlarni ularni kim tashabbus qilishi va natijalari majburiyligiga qarab tasniflab, tashabbus subyekti referendumning demokratik sifatini belgilovchi asosiy omil ekanini koʻrsatgan. D. Altman jahon mamlakatlaridagi demokratiya mexanizmlarini qiyoslab, “yuqoridan” (hokimiyat tashabbusi bilan) va “pastdan” (fuqarolar tashabbusi bilan) oʻtkaziladigan referendumlarni farqlagan. M. Kvortkrup va L. Morel esa ishtirok kvorumlari, imzo talablari va savolning shakllanishi kabi protseduraviy masalalarning referendum natijalariga ta'sirini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tizimli oʻrgangan.

Xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan Yevropa kyengashi Venetsiya komissiyasining 2022-yil 17–18-iyunda qabul qilingan Referendumlar boʻyicha yaxshi amaliyot kodeksi (CDL-AD(2022)015) muhim ahamiyatga ega. Unda umumiy, teng, erkin va yashirin ovoz berish tamoyillari, savolning mazmuniy birligi, davlat organlarining betarafligi hamda kvorumlarni belgilashga oid tavsiyalar bayon etilgan. International IDEA tashkilotining bevosita demokratiyaga bagʻishlangan qoʻllanmasida esa turli mamlakatlardagi tashabbus protseduralari qiyosiy tavsiflangan.

Milliy huquqshunoslikda referendum asosan konstitutsiyaviy huquq darsliklari va xalq hokimiyatini amalga oshirish shakllariga bagʻishlangan ishlar doirasida yoritilgan. Biroq, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotdan keyingi qonunchilik oʻzgarishlari, xususan fuqarolar tashabbusi mexanizmining amaldagi samaradorligi masalasi alohida qiyosiy-huquqiy tadqiqot obyekti boʻlmagan. Mazkur maqola ushbu boʻshliqni qisman toʻldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, formal-yuridik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Normativ baza sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Oʻzbekiston Respublikasining referendumi toʻgʻrisida”gi qonun, Konstitutsiyaviy sudning 2023-yil 13-martdagi KSQ-4-qarori, Markaziy saylov komissiyasining rasmiy maʼlumotlari, shuningdek Shveysariya, Italiya, Fransiya va Qozogʻiston konstitutsiyaviy qonunchiligi hamda Venetsiya komissiyasining hujjatlari tahlil qilindi. Xorijiy davlatlar tanlanishida bevosita demokratiyaning turli modellari (Shveysariya, Italiya, fransuz modellari) va Oʻzbekistonga yaqin huquqiy tizimga ega davlat (Qozogʻiston) tajribasini qamrab olish mezoni asos qilib olindi. Imzo talablarini qiyoslashda ular saylovchilar umumiy soniga nisbatan foiz koʻrsatkichiga keltirildi.

Tahlil va natijalar. 1. Referendumning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Konstitutsiya referendumni uchta darajada tartibga soladi.

Birinchidan, 9-moddada referendumning predmeti – “jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari» belgilanib, uni oʻtkazish tartibi qonun bilan belgilanishi koʻrsatilgan.

Ikkinchidan, 36-moddada referendumlar oʻtkazish fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish shakli sifatida eʼtirof etilgan.

Uchinchidan, 93-moddaga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi referendumini oʻtkazish toʻgʻrisida va uni oʻtkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolatlariga kiradi.

Bundan tashqari, 89-moddada Qoraqalpogʻiston Respublikasining ajralib chiqish huquqi uning xalqining umumiy referendumi bilan bogʻlangan boʻlib, bu hududiy referendumning konstitutsiyaviy asosi hisoblanadi.

2. Qonun darajasidagi tartibga solish. Qonunning 1-moddasiga koʻra referendum jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning **umumxalq ovoz berishidir;** referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega boʻlib, agar qarorning oʻzida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, faqat referendum yoʻli bilan bekor qilinishi yoki oʻzgartirilishi mumkin. Ushbu qoida referendum qarorlarini parlament qonunlaridan yuqori turuvchi alohida huquqiy manba sifatida belgilaydi.

Qonunning 2-moddasida **referendumga qoʻyilishi mumkin boʻlmagan masalalar** doirasi belgilangan: hududiy yaxlitlikni oʻzgartirish, davlat budjeti va

soliqlar, amnistiya va afv etish, mansabdor shaxslarni tayinlash va lavozimdan ozod etish, xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq masalalar shular jumlasidandir. 3-moddada esa harbiy yoki favqulodda holat sharoitida va u tugaganidan keyin uch oy mobaynida referendum o‘tkazish taqiqlangan; 2026-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-1181-qonun bilan referendum natijalari rasman e'lon qilinganidan keyin bir yil davomida aynan shunday yoki mazmunan o‘xshash masala bo‘yicha referendum o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoida qo‘shilgan. Mazkur cheklovlar xalqaro amaliyotga mos bo‘lib, referendumdan siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida foydalanish xavfini kamaytiradi.

Ishtirok etish huquqi o‘n sakkiz yoshga to‘lgan har bir fuqaroga tegishli bo‘lib, kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi va boshqa holatlarga ko‘ra cheklashlar taqiqlanadi. Xorijda istiqomat qilayotgan fuqarolar ham to‘la huquqli ishtirokchi hisoblanadi. Tashviqot erkin olib boriladi, biroq fuqarolarga pul to‘lash, tovarlarni bepul yoki imtiyozli shartlarda berish taqiqlanadi, ovoz berish kunida va undan bir kun oldin tashviqot yuritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3. Tashabbus va tayinlash tartibi. Qonunning 11-moddasiga ko‘ra referendum o‘tkazish tashabbusi fuqarolarga, Oliy Majlis palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishli. **Fuqarolar tashabbusi** kamida yuz kishidan iborat tashabbuskor guruh tuzilishi va Markaziy saylov komissiyasida ro‘yxatdan o‘tkazilishi bilan boshlanadi. Tashabbus referendumda ishtirok etish huquqiga ega fuqarolar umumiy sonining kamida besh foizi imzosi bilan qo‘llab-quvvatlanishi, imzolar esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha teng va mutanosib taqsimlanishi lozim. Tashabbuskor guruhga berilgan guvohnoma uch oy mobaynida haqiqiy bo‘lib, imzo to‘plash xarajatlari guruhning o‘zi tomonidan qoplanadi. Markaziy saylov komissiyasi imzo varaqalari kelib tushganidan keyin **o‘n kun ichida** Qonunchilik palatasiga xulosa yuboradi.

Referendum **Oliy Majlis tomonidan tayinlanadi.** Qonunchilik palatasi tashabbusni **ikki hafta ichida** ko‘rib chiqadi, ovoz berish esa palatalar qarorlari e'lon qilingan kundan e'tiboran **bir yarim oydan uch oygacha bo‘lgan muddatda** o‘tkaziladi. Referendum komissiyalari qarorlari ustidan besh kun ichida sudga shikoyat qilish mumkin, Markaziy saylov komissiyasining qarorlari esa Oliy sudga shikoyat qilinadi.

4. Haqiqiylik va qaror qabul qilish. Qonunga muvofiq ro‘yxatga kiritilgan fuqarolarning **yarmidan ko‘pi ishtirok etgan taqdirda** referendum o‘tgan deb topiladi, qaror esa ovoz berishda ishtirok etganlarning yarmidan ko‘pi yoqlab ovoz bersa, qabul qilingan hisoblanadi. Shu tariqa O‘zbekistonda ishtirok kvorumi (turnout quorum) modeli qo‘llaniladi.

5. 2023-yilgi konstitutsiyaviy referendum tajribasi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi 2023-yil 10-martda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo‘yicha referendum o‘tkazish haqida qaror qabul qildi. Konstitutsiyaviy sud 13-martda ushbu qarorni Konstitutsiyaga muvofiq deb topdi va referendumga qo‘yiladigan masala referendum predmeti bo‘la olmaydigan masalalar qatoriga kirmasligini qayd etdi. Senat 14-martda qarorni ma'qulladi. Shu tariqa referendumni tayinlash to‘g‘risidagi qarorning dastlabki **konstitutsiyaviy nazorati** amaliyoti birinchi marta qo‘llanildi.

Loyiha yuzasidan jamoatchilikdan **220 mingdan ortiq taklif** kelib tushgan, Konstitutsiya moddalari soni 128 tadan **155 ta**ga, normalari 275 tadan **434 ta**ga koʻpaygan. Ovoz berish byulleteniga “Siz Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunini qabul qilasizmi?” degan yagona savol kiritildi. Markaziy saylov komissiyasining yakuniy ma'lumotlariga koʻra, roʻyxatga kiritilgan 19 722 809 nafar fuqarodan 16 667 097 nafari **(84,5 foiz)** ovoz berishda ishtirok etdi, ulardan **611 320** nafari muddatidan oldin ovoz berdi; **90 foizdan ortiq ishtirokchi** qonunni yoqlab ovoz berdi. Komissiya jiddiy qoidabuzarliklar sababli uchta uchastka natijalarini haqiqiy emas deb topdi. Jarayonni **45** davlat va xalqaro tashkilotlardan **383 nafar kuzatuvchi** kuzatib bordi.

Ushbu tajriba bir nechta muhim xulosalarga asos beradi:

Birinchidan, keng jamoatchilik muhokamasi va dastlabki konstitutsiyaviy nazorat referendumning legitimligini mustahkamladi.

Ikkinchidan, yuzlab normalarni oʻzgartiruvchi hujjatning yagona savol shaklida ovozga qoʻyilishi Venetsiya komissiyasining mazmuniy birlik tamoyili nuqtayi nazaridan muhokamaga sabab boʻladi: Kodeks konstitutsiyani toʻliq qayta koʻrib chiqishda bu tamoyildan istisno qilishga yoʻl qoʻyadi, biroq kelgusida qisman oʻzgartishlar ovozga qoʻyilganda saylovchilarga turli masalalar boʻyicha oʻz irodasini alohida bildirish imkoniyatini berish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, mustaqillik yillarida oʻtkazilgan toʻrtta umumxalq referendumining (1991-yil 29-dekabr, 1995-yil 26-mart, 2002-yil 27-yanvar, 2023-yil 30-aprel) barchasi **hokimiyat tashabbusi** bilan oʻtkazilgan, ya'ni D. Altman tasnifi boʻyicha “yuqoridan” oʻtkaziladigan referendumlar toifasiga kiradi.

6. Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil. Shveysariyada 100 ming saylovchi 18 oy ichida imzo toʻplab, Konstitutsiyani oʻzgartirish boʻyicha xalq tashabbusini kiritishi mumkin; parlament qabul qilgan federal qonun e'lon qilinganidan keyin **100 kun** ichida **50 ming** imzo toʻplansa, fakultativ referendum oʻtkaziladi; barcha konstitutsiyaviy oʻzgartirishlar majburiy referendumga qoʻyiladi va xalq hamda kantonlarning ikki karra koʻpchiligi bilan qabul qilinadi. Ishtirok kvorumi mavjud emas.

Italiya Konstitutsiyasining 75-moddasiga koʻra 500 ming saylovchi yoki beshta mintaqaviy kengash talabi bilan qonunni toʻliq yoki qisman bekor qilish (abrogativ) referendumi oʻtkaziladi; soliq va budjet qonunlari, amnistiya, afv etish va xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish toʻgʻrisidagi qonunlar bundan mustasno. Referendum saylovchilarning koʻpchiligi ishtirok etganda haqiqiy boʻladi. Italiya tajribasi ishtirok kvorumining salbiy oqibatini ham koʻrsatadi: taklifga qarshi kuchlar koʻpincha ovoz berishga kelmaslikka chaqirish orqali referendumni kvorum yetishmasligi sababli haqiqiy emas deb toptirishga harakat qiladi.

Fransiyada 2008-yilgi konstitutsiyaviy islohot bilan Konstitutsiyaning 11-moddasiga “birgalikdagi tashabbus” bilan oʻtkaziladigan referendum kiritilgan: tashabbus parlament a'zolarining beshdan biri tomonidan ilgari surilishi va saylovchilarning oʻndan biri (taxminan 4,5 mln kishi) tomonidan toʻqqiz oy ichida elektron shaklda qoʻllab-quvvatlanishi lozim. Bu mexanizm hozirgacha biror marta muvaffaqiyatli yakunlanmagan, bu esa juda yuqori imzo talabi tashabbus institutini amalda ishlamaydigan holatga keltirishini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tasdiqlaydi. **Qozog‘istonda** “Respublika referendumi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunga ko‘ra Prezident, Parlament, Hukumat hamda kamida 200 ming fuqaro referendum tashabbusi bilan chiqishi mumkin; referendum saylovchilarning yarmidan ko‘pi ishtirok etganda o‘tgan hisoblanadi.

Qiyosiy ko‘rsatkichlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Fuqarolar tashabbusi bilan referendum o‘tkazish shartlari

Izoh: ulushlar saylovchilarning taxminiy umumiy soniga nisbatan muallif tomonidan hisoblangan; O‘zbekiston uchun 2023-yil referendumidagi ro‘yxat (19,7 mln) asos qilib olingan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda fuqarolar tashabbusi uchun talab etiladigan imzolar ulushi (**5 foiz,** ya'ni **986 mingga yaqin imzo**) Shveysariya, Italiya va Qozog‘istondagidan 3–5 barobar yuqori, to‘plash muddati esa (3 oy) Shveysariyadagidan olti barobar qisqa. Bunga imzolarni barcha 14 ta hudud bo‘yicha mutanosib taqsimlash talabi va xarajatlarning to‘liq tashabbuskor guruh zimmasida ekani qo‘shiladi. Fransuz tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bunday yuqori talablar tashabbus mexanizmini amalda “uxlab yotgan” normaga aylantiradi.

Muhokama. Tahlil natijalari O‘zbekistonda referendumning mustahkam konstitutsiyaviy asosi va tashkiliy-huquqiy mexanizmi shakllanganini ko‘rsatadi: referendum predmeti va cheklovlar aniq belgilangan, tayinlash tartibiga konstitutsiyaviy nazorat elementi kiritilgan, natijalarni e'lon qilish va shikoyat qilish tartibi mavjud. 2023-yilgi referendum ushbu mexanizmning amalda ishlay olishini tasdiqladi.

Shu bilan birga, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, fuqarolar tashabbusi uchun belgilangan imzo talabi xorijiy amaliyotdagidan sezilarli yuqori bo‘lib, mexanizmning 35 yil davomida biror marta qo‘llanilmagani bu xulosani tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, qonunda imzolarni elektron shaklda to‘plash nazarda tutilmagan, holbuki “Mening fikrim” kabi davlat elektron murojaatlar platformasi va yagona identifikatsiya tizimi bunday imkoniyatni yaratadi.

Uchinchidan, 2019-yilda saylov qonunchiligi Saylov kodeksida birlashtirilgan bo‘lsa-da, referendum protsedurasi alohida qonunda qolmoqda; bu saylov va referendum komissiyalari faoliyati, kuzatuvchilar, tashviqot va nizolarni hal etish qoidalari o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelishi xavfini tug‘diradi.

To‘rtinchidan, ishtirok kvorumi masalasi bahsli: Venetsiya komissiyasi ishtirok kvorumini belgilamaslikni tavsiya etadi, chunki u betaraflik va boykot strategiyasini rag‘batlantiradi, biroq Konstitutsiyani qabul qilish kabi hal qiluvchi masalalar uchun yuqori legitimlik talabi ham asosli hisoblanadi.

Beshinchidan, tashviqot davrida taraflarga ommaviy axborot vositalarida teng efir vaqti ajratilishi va tashviqot xarajatlarining shaffofligi qonunda yetarli darajada kafolatlanmagan.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonunni 2023-yilgi Konstitutsiya normalariga to‘liq muvofiqlashtirish va referendum protseduralarini Saylov kodeksiga alohida bo‘lim sifatida kiritish yoki yangi tahrirdagi qonun qabul qilish maqsadga muvofiq.

2. Fuqarolar tashabbusi uchun imzo talabini ovoz beruvchilar umumiy sonining **5 foizidan 2 foiziga** (taxminan **400 ming imzo**) tushirish, imzo to‘plash muddatini esa 3 oydan 6 oyga uzaytirish taklif etiladi. Bu ko‘rsatkich Italiya va Qozog‘iston amaliyotiga yaqin bo‘lib, tashabbusni ham real, ham yetarli darajada vakilli qiladi.

3. Imzolarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va yagona identifikatsiya tizimi orqali **elektron shaklda to‘plash tartibini joriy etish**, **elektron** va **qog‘oz** imzolarning huquqiy tengligini qonunda mustahkamlash lozim.

4. Fuqarolar tashabbusi bilan ilgari surilgan masalaning Konstitutsiyaga muvofiqligi, mazmuniy birligi va aniqligini imzo to‘plash boshlanguniga qadar Konstitutsiyaviy sud tomonidan tekshirish tartibini belgilash zarur. Bu tashabbuskorlarning resurslarini asossiz sarflanishdan himoya qiladi.

5. Ishtirok kvorumini konstitutsiyaviy masalalar bo‘yicha saqlab qolgan holda, boshqa masalalar bo‘yicha uni tasdiqlash kvorumi (masalan, “yoqlab” berilgan ovozlar ro‘yxatdagilarning kamida **25 foizi**ni tashkil etishi) bilan almashtirish imkoniyatini o‘rganish taklif etiladi.

6. Tashviqot davrida “yoqlab” va “qarshi” pozitsiyadagi taraflarga davlat ommaviy axborot vositalarida teng efir vaqti ajratish, tashviqot xarajatlari va ularning manbalarini oshkor etish majburiyatini qonunda belgilash lozim.

Xulosa qilib aytganda, **O‘zbekistonda referendum instituti** konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan va 2023-yilda o‘zining samaradorligini namoyon etdi. Biroq, uning demokratik salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun “yuqoridan” o‘tkaziladigan referendum bilan bir qatorda “pastdan” – fuqarolar tashabbusi bilan o‘tkaziladigan referendum mexanizmini amalda ishlaydigan holatga keltirish zarur. Taklif etilayotgan chora-tadbirlar Venetsiya komissiyasi standartlari va ilg‘or xorijiy tajribaga mos bo‘lib, xalq hokimiyatining bevosita shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023 йил 30 апрелда референдумда қабул қилинган) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – URL: https://lex.uz.

2. “Ўзбекистон Республикасининг референдуми тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни (1991 йил 18 ноябрь; 2001 йил 30 августдаги 265-II-сон қонун таҳририда, 2026 йил 14 октябрдаги ЎРҚ-1181-сон қонунгача бўлган ўзгартишлар билан) // URL: https://lex.uz/acts/81253.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 4 сентябрдаги “Сайлов тўғрисидаги қонун ҳужжатлари такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги ЎРҚ-563-сон қонуни // URL: https://lex.uz/acts/4497111.

4. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 16 июндаги ЎРҚ-779-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

5. Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2023 йил 13 мартдаги КСҚ-4-сон қарори // URL: https://lex.uz/docs/6405731.

6. Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодекси (2019 йил 25 июнь, ЎРҚ-544-сон) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

7. Final results of the referendum on Uzbekistan’s new Constitution // Gazeta.uz. – 2023. – 1 May. – URL:

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

https://gazeta.uz/en/2023/05/01/referendum-final.

8. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Revised Code of Good Practice on Referendums. CDL-AD(2022)015. – Venice, 17–18 June 2022.

9. Federal Constitution of the Swiss Confederation of 18 April 1999. Arts. 138–142.

10. Costituzione della Repubblica Italiana (1947). Art. 75.

11. Constitution de la République française du 4 octobre 1958. Art. 11 (dans sa rédaction issue de la loi constitutionnelle du 23 juillet 2008).

12. Конституционный закон Республики Казахстан от 2 ноября 1995 года № 2592 «О республиканском референдуме».

13. Butler D., Ranney A. (eds.). Referendums Around the World: The Growing Use of Direct Democracy. – London: Macmillan, 1994.

14. Qvortrup M. Direct Democracy: A Comparative Study of the Theory and Practice of Government by the People. – Manchester: Manchester University Press, 2013.

15. Morel L., Qvortrup M. (eds.). The Routledge Handbook to Referendums and Direct Democracy. – London: Routledge, 2018.

16. Setälä M. Referendums and Democratic Government: Normative Theory and the Analysis of Institutions. – London: Macmillan, 1999.

17. Altman D. Direct Democracy Worldwide. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.

18. Ўзбекистон Республикаси Президенти референдумда овоз берди // President.uz. – 2023. – 30 апрель. – URL: https://president.uz/uz/lists/view/6241.

19. Direct Democracy: The International IDEA Handbook. – Stockholm: International IDEA, 2008.